



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI**

B U Y R U G ‘I

**Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 16-oktabrdagi 272-son
buyrug‘iga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida**

Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 16-oktabrdagi 272-son buyrug‘ining 2-ilovasiga muvofiq “O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilishda nomzodlarni saralash komissiyasi” (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) tarkibi tasdiqlangan.

Mazkur buyruq bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq Tanlov komissiyasi tarkibiga vakant lavozimlarning xususiyatlaridan kelib chiqib, Tanlov komissiyasi tarkibini takomillashtirish maqsadida **buyuraman:**

1. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 16-oktabrdagi 272-son buyrug‘ining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomning 5-bandi uchinchi va to‘rtinchi hatboshilari quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Tanlov komissiyasi raisi – Raqamli texnologiyalar vaziri;

Tanlov komissiyasi raisining o‘rinbosari – Vakant lavozimga ishga qabul qilinayotgan masala bo‘yicha faoliyat yurituvchi Vazirning tegishli masalalar bo‘yicha o‘rinbosarlari va maslahatchisi;

Tanlov komissiyasi raisining o‘rinbosari – Vazirning rejim va kadrlar bo‘yicha maslahatchisi;

Tanlov komissiyasi a‘zolari – ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish, yuridik ta‘minlash, Vazirlik markaziy apparatining tegishli masalalar bo‘yicha tarkibiy bo‘linma rahbari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi;”.

2. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 16-oktabrdagi 272-son buyrug‘ining 2-ilovasi bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilishda nomzodlarni saralash komissiyasi (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) tarkibi ilovadagi tahrirga muvofiq tasdiqlansin.

3. Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 16-oktabrdagi 272-son buyrug'ining 2-ilovasi o'z kuchini yo'qotgan deb topilsin.

4. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Vazir



Sh. Shermatov

Toshkent sh.
2023-yil 20-dekabr
319-son